ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Published: 30.09.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/wyqg4417

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Institute of Uzbek National Musical Art named after Yunus Rajabi
JOURNAL OF NATIONAL CULTURE, 2 (3), 2026
www.jnculture.uz

Milliy cholg‘u va zamonaviy kompozitorlik tafakkuri: Mustafo Bafoevning «Tanbur va orkestr uchun konserti» misolida

(National instruments and modern compositional thought: the example of Mustafa Bafoev's "Concerto for Tanbur and Orchestra")

Dilshoda Kadirova

Doctoral student, Department of Music History and Criticism
The State Conservatory of Uzbekistan
100027, Botir Zokirov, 1.
Uzbekistan/Tashkent
E-mail: dilshodaibragimovna54@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada milliy cholg‘ularning zamonaviy kompozitorlik tafakkuridagi badiiy-estetik o‘rni hamda ularning akademik musiqa janrlari doirasida yangi ifoda imkoniyatlariga ega bo‘lish jarayoni o‘zbek kompozitori Mustafo Bafoyevning «Tanbur va simfonik orkestr uchun konsert» asari misolida yoritiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi milliy musiqiy meros va zamonaviy kompozitorlik uslublari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni aniqlash, tanbur cholg‘usining o‘ziga xos tembr, ohang, ritm va ijrochilik imkoniyatlarining simfonik orkestr bilan uyg‘unlashuv xususiyatlarini musiqiy-nazariy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Maqolada o‘zbek xalq cholg‘ularining tarixiy-madaniy ahamiyati, professional kompozitorlik maktabining shakllanishi jarayonida milliy cholg‘ularning simfonik musiqa, konsert janri va boshqa akademik shakllarga kirib kelishi masalalariga ham e’tibor qaratiladi. Tadqiqot doirasida Mustafo Bafoyev ijodining milliy an’analar va zamonaviy musiqiy tafakkur uyg‘unligini namoyon etuvchi jihatlari ko‘rib chiqiladi. Xususan, kompozitorning maqom an’analari, xalq musiqasi intonatsiyalari va milliy ritmik xususiyatlarni zamonaviy kompozitsion vositalar bilan birlashtirish tamoyillari tahlil etiladi. Asarning musiqiy tili modallik, zamonaviy akkord tuzilmalari, xromatizm, alteratsiya, imitatsiya, kontrapunkt va polifonik qatlamlarning o‘zaro munosabati nuqtayi nazaridan yoritiladi. Shuningdek, tanbur va orkestr o‘rtasidagi dialogik munosabatlar, tembrlar qarama-qarshiligi, musiqiy fakturaning shakllanishi hamda dramatik rivojlanish jarayonlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Mustafo Bafoyev, milliy cholg‘ular, tanbur, simfonik orkestr, zamonaviy kompozitorlik tafakkuri, o‘zbek musiqasi, maqom an’analari, konsert janri, musiqiy dramaturgiya, modallik.

Abstract

This article examines the artistic and aesthetic role of national musical instruments within contemporary compositional thought, as well as the process by which they acquire new expressive possibilities within the framework of academic musical genres, using the "Concerto for Tanbur and Symphony Orchestra" by the Uzbek composer Mustafo Bafoyev as a case study. The primary objective of this research is to define the interplay between national musical heritage and contemporary compositional styles, and to provide a theoretical analysis of how the unique timbre, melodic qualities, rhythms, and performance capabilities of the “tanbur” integrate with a symphony orchestra. The article also addresses the historical and cultural significance of Uzbek folk instruments, exploring their incorporation into symphonic music, the concerto genre, and other academic forms during the development of a professional school of composition. Furthermore, the study investigates aspects of Mustafo Bafoyev’s work that demonstrate a synthesis of national traditions and modern musical thought—specifically, his approach to integrating “maqom” traditions, folk music intonations, and national rhythmic characteristics with contemporary compositional techniques. The work's musical language is analyzed in terms of modality, modern chord structures, chromaticism, alteration, imitation, counterpoint, and the interplay of polyphonic layers. Additionally, the study examines the dialogic relationship between the tanbur and the orchestra, the contrast of timbres, the formation of musical texture, and the processes of dramatic development.

Keywords: Mustafo Bafoyev, national instruments, tanbur, symphony orchestra, modern compositional thinking, Uzbek music, Maqom traditions, concerto genre, musical dramaturgy, modality.

Аннотация

В данной статье рассматривается художественно-эстетическая роль национальных инструментов в мышлении современных композиторов и процесс освоения ими новых выразительных возможностей в рамках академических музыкальных жанров на примере произведения узбекского композитора Мустафы Бафоева «Концерт для танбура и симфонического оркестра». Главная цель исследования – выявление взаимосвязи между национальным музыкальным наследием и стилями современных композиторов, анализ музыкально-теоретических особенностей гармонии уникального тембра, мелодии, ритма и исполнительских возможностей инструмента танбура с симфоническим оркестром. В статье также рассматривается историко-культурное значение узбекских народных инструментов, внедрение национальных инструментов в симфоническую музыку, концертные жанры и другие академические формы в процессе

формирования профессиональной композиторской школы. В исследовании рассматриваются аспекты творчества Мустафы Бафоева, демонстрирующие гармонию национальных традиций и современного музыкального мышления. В частности, анализируются принципы композитора, сочетающие традиции макома, народные интонации и национальные ритмические особенности с современными композиционными средствами. Музыкальный язык произведения освещается с точки зрения модальности, современных аккордовых структур, хроматизма, альтерации, имитации, контрапункта и взаимодействия полифонических слоев. Также рассматриваются диалогические отношения между танбуром и оркестром, контраст тембров, формирование музыкальной фактуры и процессы драматического развития.

Ключевые слова: Мустафа Бафоев, национальные инструменты, танбур, симфонический оркестр, современное композиторское мышление, узбекская музыка, традиции макома, концертный жанр, музыкальная драматургия, модальность.

O‘zbek musiqa madaniyatining ko‘p asrlik taraqqiyotida milliy cholg‘ular alohida badiiy va estetik ahamiyatga ega. Dutor, tanbur, sato, g‘ijjak, nay, rubob, chang, doira kabi cholg‘ular o‘zbek xalqining musiqiy tafakkuri, tarixiy xotirasi va estetik qarashlarini o‘zida mujassam etgan. Milliy cholg‘ularning ahamiyati faqat ularning ijro repertuari yoki an’anaviy ansambllardagi vazifasi bilan chegaralanmaydi. Ularning tembri, diapazoni, artikulyatsiyasi, tovush hosil qilish usuli, melodik imkoniyatlari va ijro uslubi zamonaviy kompozitorlar uchun alohida ijodiy material vazifasini bajaradi. XX asrda O‘zbekistonda professional kompozitorlik maktabining shakllanishi bilan milliy cholg‘ular yangi badiiy muhitga – simfonik orkestr, kamer ansambl, opera, balet, konsert va boshqa akademik janrlarga kirib keldi. Shu tariqa an’anaviy cholg‘u va zamonaviy kompozitsion tafakkur o‘rtasida yangi munosabatlar shakllandi [2, 102-b.].

Milliy cholg‘ularning zamonaviy kompozitorlik tafakkuridagi o‘rnini o‘rganishda Mustafo Bafoyev ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu kompozitor haqida zamondosh hamkasblaridan biri bo‘lmish professor, O‘zbekiston san’at arbobi F.M. Yanov-Yanovskiy shunday deydi: “Mustafo Bafoyev - tinib-tinchimas

va doimiy ijodiy izlanishda hayot kechiradigan kompozitorlardan biri. Uning ohirgi yillarda paydo bo‘layotgan asarlariga fikr va g‘oyalar, cholg‘u sozlari va ijrochilar tarkibi, nav va uslubiy yechimlar man-man deydigan ijodkorlarni, muhlis va shinavandalarni ham hayratga solmoqda... ” [1, 5-b.].

Bafoyev professional faoliyatida kompozitorlik bilan bir qatorda o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri bilan ham bevosita ishlagan. Uning 1979-yildan D. Zokirov nomidagi o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrida dirijor, 1986-yildan esa bosh dirijor va badiiy rahbar sifatida faoliyat yuritgani bunga yorqin misol bo‘la oladi. Bu tajriba kompozitorning milliy cholg‘ular imkoniyatlarini ichki ijrochilik nuqtayi nazaridan chuqur o‘zlashtirishiga sharoit yaratgan. Bafoyev ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotda uning dutor, rubob, g‘ijjak, nay va doira kabi milliy cholg‘ularni simfonik va kamer-orkestr asarlarida zamonaviy musiqiy til bilan uyg‘unlashtirgan ko‘plab asarlari mavjudligi qayd etilgan. Bu jihat kompozitorning uslubiy tamoyilini quyidagicha ifodalash imkonini beradi: milliy cholg‘u → milliy intonatsiya → zamonaviy faktura → simfonik dramaturgiya [3, 27-b.].

Kompozitor alohida olingan sozlar uchun ham katta janrdagi asarlar yaratishda jonbozlik qiladigan. Uning tanbur va simfonik orkestr uchun konsertida yangilik belgilari ko‘zga tashlansa, konsert janrining yangicha talqini zarbli cholg‘ular uchun «Sounds of samo‘» (Samo’ sadolari) asarida bu janr yangi bosqichga olib chiqilgan. Zero, bu asarda Sharqona usullar bilan Yevropacha janr uyg‘unligining guvohi bo‘lamiz. Kompozitor Sharq musiqasidagi zarbli sozlarning yetakchiligini konsert musiqiy imkoniyatlari orqali ko‘rsatib beradi.

Bafoyev asarlarida chang, nay, dutor, g‘ijjak, doira kabi cholg‘ular muhim tembr manbai sifatida ishlatiladi. U bu cholg‘ularni oddiy folklor ifodasi sifatida emas, balki simfonik tafakkurga moslashtirilgan professional ifoda vositasi sifatida qo‘llaydi. Natijada milliy cholg‘ular orkestr fakturasining ajralmas qismiga aylanadi.

Kompozitor orkestrlashda milliy cholg‘ular va simfonik orkestr o‘rtasida muvozanat yaratadi, masalan, nay va skripka dialogi, g‘ijjakning ichki lirizmi yoki doiraning ritmik asos sifatidagi roli asarlarda muhim dramaturgik vazifani bajaradi. Bu esa asarlarning emotsional va obrazli qatlamini boyitadi. Bafoyev ijodida xalq qo‘shiqlari va maqom tizimi asosiy manba hisoblanadi. U mazkur materialni to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘chirmasdan, balki transformatsiya qilib, zamonaviy musiqiy tilga moslashtiradi. Bu jarayon milliy musiqa an’analarining yangicha talqinini yaratishga imkon yaratadi [5, 36–38-b.].


Kompozitorning asosiy yutug‘i - milliy cholg‘ularni faqat folklor ansambli darajasida emas, balki yirik simfonik konsepsiya ichida ishlatishidir. Bu esa o‘zbek musiqa san’atining xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshiradi va uning estetik imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga uning har bir asarga murojaatida o‘ziga xos yondashuvi mavjud. Mavzuga jiddiy yondashish, asl g‘oyani ochib berish, yangi zamonaviy uslublarda talqin etish, eng dolzarb mavzularga murojaat etish kompozitorning ijodiy tamoyilini tashkil etadi deyish mumkin. Uning ijodi bo‘yicha juda ko‘p tahliliy ilmiy-nazariy ishlar yaratilgan. Quyida uning simfonik orkestr va milliy cholg‘ularimizdan biri bo‘lmish - Tanbur uchun yaratgan konsertini qisqacha tahlil qilib ko‘ramiz.

Zamonaviy o‘zbek musiqasida milliy meros va global musiqiy jarayonlar integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Kompozitor Mustafo Bafoyev ijodi ana shu jarayonning yorqin namunasidir. Uning asarlarida milliy cholg‘ular simfonik orkestr bilan uyg‘unlashib, yangi musiqiy ifoda vositalarini yuzaga keltiradi. “Tanbur va simfonik orkestr uchun konsert”i ana shunday asarlardan biri bo‘lib, unda maqom an’analari zamonaviy kompozitorlik texnikalari bilan boyitilgan.

Asarning garmonik xususiyatlari to‘g‘risida so‘z yuritilganda, modal garmoniya ustunlik qiladi. Tanbur partiyasi maqom kuylari ohangiga asoslangan bo‘lib, erkin intonatsion rivojlanishga ega. Orkestr esa funksional garmoniya va

zamonaviy akkord tuzilmalari orqali boyitilgan bo‘lib, kompozitor klasterlar va alteratsiyalarni mohirlik bilan keng qo‘llagan. Asarda imitatsiya va kontrapunkt usullari asosiy o‘rin tutadi. Tanbur va orkestr o‘rtasidagi dialogik rivojlanish dramatik harakatni ta’minlaydi. Polifonik qatlamlar bir-birini to‘ldirib, murakkab musiqiy to‘qima hosil qilgan. Asar uch qismli konsert shaklida yozilgan bo‘lib, birinchi qismda tematik ekspozitsiya, ikkinchi qismda lirizm, uchinchi qismda esa final rivojlanish kuzatiladi. Rapsodik elementlar esa milliy uslubni kuchaytiradi. Asarning umumiy rivoji keskin kontrastlarga asoslangan. Lirik va dramatik epizodlar almashinuvi orqali musiqiy dramaturgiya yaratiladi.

Konsertning I qismi Allegro moderato sonata allegrosi xususiyatlariga ega bo‘lib, o‘zida dramatik rivojlanishni namoyon qiladi. Bosh mavzu tanbur partiyasida ostinato xarakteridagi ritmik harakatlar bilan ko‘rsatilgan. Bu yerda motor ritmika, sekvension rivojlanish, improvizatsion passajlar hamda maqomga xos lad intonatsiyalari asosiy o‘rin tutadi.




Tanbur partiyasida tez-tez uchraydigan kvarta hamda kvinta tayanchlari milliy musiqa ruhini kuchaytirgan. Orkestr esa garmonik tayanch vazifasini bajargan.


Bosh mavzuning asosiy xususiyatlari sinkopalashgan harakat va dinamik o‘sish orqali namoyon bo‘ladi. Keskinlik hosil qilish uchun kompozitor xromatizm va alteratsiyalangan tovushlardan foydalanib, zamonaviy musiqiy tilni

shakllantiradi. Tanburning virtuoz texnikasi – tez passajlar, tremolo, sakrashlar – konsert shaklining solistik tabiatini ochib beradi.

II qism – Andante con moto – lirik-falsafiy xarakterga ega bo‘lib, tempning sekinlashishi hamda 7/8 o‘lchovining qo‘llanilishi milliy usul xususiyatlarini yorqin namoyon etadi. Mazkur qismda maqomsimon intonatsiyalar, erkin ritmika yetakchilik qiladi. Tanbur sozining tembri inson ovoziga yaqin lirik xarakterda ifodalangan, shuningdek melodiyada nola va ichki dramatizm mahorat bilan ko‘rsatilgan. Garmoniyada kvarta-kvinta vertikallari, pedal tovushlar koloristik fonni yaratadi. Kompozitor milliy ladni yevropacha garmonik fikrlash bilan birlashtirgan [4, 13-b.].



Mazkur asarning eng muhim dramatik nuqtasi bo‘lmish kadensiya, erkin improvizatsiya xarakteriga ishora qiladi. Bu yerda tanbur yakkaxon sifatida ijrochilik mahoratininamoyonqiladi.Kadensiyamaqom ijrochiligi an’anasiga yaqin bo‘lib, erkin ijro uslubida talqin etilgan.



III qism – Allegretto/Allegro moderato. Final qismi raqssimon va bayramona xarakterga ega. 6/8 o‘lchov milliy usul va xalqona harakatni ifodalaydi. Asosiy

mavzu tez ritm, ostinatoli harakatlar, sinkopalar asosida yaratilgan. Bu mavzuda xalq kuylarining intonatsiyasi yaqqol seziladi. Finalda variatsion rivojlanish, poliritmiya, dinamik kontrastlar faol qo‘llangan. Tanbur va orkestr o‘rtasida “savol-javob” tipidagi dramatik muloqot paydo bo‘lgan. Final kulminatsiyasida esa ff dinamika, yuqori registr, zich faktura hamda kuchli akkordlar orqali tantanavor yakun hosil qilinadi. Kompozitor tomonidan final milliy konsert janrining zamonaviy talqini sifatida namoyon qilinadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mazkur asar o‘zbek simfonik musiqasining rivojida muhim o‘rin tutadi. Kompozitor Mustafo Bafoyevning bir qator asarlari orasidagi bu konsert milliy cholg‘u sozi bilan ajralib turadi. Asar nafaqat estetik, balki ilmiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Mazkur maqola doirasida asarning turli jihatlari chuqur o‘rganilib, uning musiqiy tilidagi o‘ziga xosliklar tahlil qilindi. Kompozitor tomonidan qo‘llanilgan usullar milliy va zamonaviy tafakkurning uyg‘unlashgan ko‘rinishini namoyon etadi. Mustafo Bafoyev o‘zbek musiqa ijodiyotida yorqin asarlar yaratib kelayotgan va samarali faoliyat olib borayotgan sermahsul kompozitor hamda ijodkordir. Bu kabi milliy cholg‘ularni talqin etuvchi misollarning yana bir qanchasini keltirish mumkin. Aslida, simfonik asarlar o‘zbek kompozitorlari ijodida alohida ahamiyatga ega ekanligi juda quvonarli holat, albatta. Yangi-yangi asarlarni yaratish jarayonida o‘zbek mumtoz musiqasi bilan uyg‘unlik tug‘ilajak asarga o‘zgacha jilo bag‘ishlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bafoyev M. «Ruboiyyot va kompozitorlik ijodiyoti». – Toshkent, 2008.
2. Yanov-Yanovskaya N. S. «Istoriya uzbekskoy sovetskoy muzyki». T. III. – T.: G‘afur G‘ulom, 1991.
3. Golovyans T. A. «O‘zbekiston kompozitorlari va musiqashunoslari». – Toshkent, 2019.
4. Azimova O. N. «Zamonaviy garmoniya». – Toshkent, 2008.
5. Isayev U. Z. The Importance of Folk Instruments in the Work of Uzbekistan Composers: On the Example of the Work of Mustafo Bafoev // International Journal of Pedagogics. – 2025. – Vol. 5, Issue 04. – P. 36–38. – DOI: https://doi.org/10.37547/ijp/Volume05Issue04-11.

References

1. Bafoyev, M. *Ruboiyyot va kompozitorlik ijodiyoti [Rubaiyat and Compositional Creativity]*. Toshkent, 2008. (in Uzbek)
2. Yanov-Yanovskaya, N. S. *Istoriya uzbekskoy sovetskoy muzyki [History of Uzbek Soviet Music]*. Vol. 3. T.: G‘afur G‘ulom, 1991. (in Russian)
3. Golovyans, T. A. *O‘zbekiston kompozitorlari va musiqashunoslari [Composers and Musicologists of Uzbekistan]*. Toshkent, 2019. (in Uzbek)
4. Azimova, O. N. *Zamonaviy garmoniya [Contemporary Harmony]*. Toshkent, 2008. (in Uzbek)
5. Isayev, U. Z. “The Importance of Folk Instruments in the Work of Uzbekistan Composers: On the Example of the Work of Mustafo Bafoev.” *International Journal of Pedagogics* 5, no. 04 (2025): 36–38. https://doi.org/10.37547/ijp/Volume05Issue04-11.